



BAG‘RIKENGLIKNING IJTIMOIIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDAGI O‘RNI

Alimardon Karomatov Azamat o‘g‘li

*Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, “Shayxon” jome masjidi imom noibi
“Xoja Buxoriy” islom ta’lim muassasasi Matbuot kotibi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bag‘rikenglik tushunchasining ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi. Unda islom dinida bag‘rikenglik g‘oyasining mazmun-mohiyati, dinlararo totuvlik, millatlararo hamjihatlik va vijdon erkinligi masalalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo hamkorlikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan davlat siyosati, milliy qadriyatlar va tarixiy tajribaning o‘rni asoslab beriladi. Maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMT va YUNESKO tomonidan qabul qilingan deklaratsiyalar tahlili orqali bag‘rikenglik g‘oyasining global ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari jamiyatda tinchlik, barqarorlik va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlashda diniy bag‘rikenglik muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy barqarorlik, dinlararo totuvlik, vijdon erkinligi.

Muqaddas dinimiz islom dinida keng targ‘ib qilingan bag‘rikenglik tushunchasi tinch-totuvlikning muhim omili bo‘lgan ijtimoiy barqarorlikning asosidir. Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda bag‘rikenglik muhim ahamiyat kasb etadi. Bag‘rikenlik turli millat va din vakillarining bir makonda birgalikda ahil bo‘lishiga, ular o‘rtasida hamkorlik va hamjihatlikning rivojlanishiga keng yo‘l ochmoqda. O‘z navbatida xalqimizning milliy o‘zbekona bag‘rikenligi vatanimiz ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash, yurt tinchligini yanada mustahkamlash, iqtisodiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlanishiga yuksak hissa qo‘shmoqda.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq yurtimizda millatlarga totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalasi davlatimiz ichki va tashqi siyosatida muhim o‘rin egalladi. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga xorij matbuoti, taniqli siyosatchi va tahlilchilar yuqori baho bermoqda. Dunyoning turli mintaqalarida dinlararo munosabatlar murakkablashib, ayrim ilg‘or davlatlarida ham oz sonli millat vakillarini kamsitish holatlari kuzatilayotgan bir paytda, 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamda 16 konfessiya vakillari hamjihatlik va hamkorlikda yagona oila farzandlaridek ahil hamda inoq yashayotgan O‘zbekiston chindan ham bag‘rikenglik borasida boshqalarga



namuna va ibrat bo'la oladi.

Dinlararo bag'rikenglik deb, xilma-xil din va mazhab egalarining bir-birining e'tiqodini o'zaro hurmat qilib, tushunib, yagona zamin, yagona vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashiga aytiladi.

Bugungi kunda dinlararo bag'rikenglikka erishish uchun ular o'rtasida madaniy muloqot, ezgulik yo'lidagi hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, keyingi asrda insoniyat boshiga tushgan xatarlar — yadro urushi xavfi, ekologik halokatlar, terrorchilik va ekstremizm kabi ofat-balolar dinlararo ezgulik, barcha insonlar uchun yagona bo'lgan sayyoramizni saqlab qolish yo'lida birlashish va hamkorlik qilishga undamoqda. Barcha dinlarning mohiyatini ezgulik, do'stlik va birodarlik, mehr-shafqat kabi tushunchalar tashkil qiladi. Aynan ana shu tushunchalar turli din vakillarini muloqotga, hamkorlikka da'vat etadigan umumiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda bashariyat bu haqiqatni tobora chuqurroq anglamoqda. Diniy bag'rikenglik g'oyasi muayyan jamiyatda, butun dunyoda turli din va mazhabga e'tiqod qiladigan xalqlar, odamlar o'rtasida do'stona aloqalarni o'rnatish, ularning kuchi va iste'dodini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishga xizmat qiladi.

Jamiyat paydo bo'lgandan beri din eng muhim ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi. Dinning ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilinishi, uning jamiyat hayotidagi real vazifalarini bajarishi hamda muayyan talablarga javob berishni anglatadi. Din ijtimoiy fenomen sifatida obyektiv omil sanalib, tashqi va majburiy tarzda kishilarga har qanday jamoatchilik instituti sifatida ta'sir o'tkazadi. Dinning jamiyatda bajaradigan bir qancha funksiyalar mavjud. Ba'zi mualliflar fikriga ko'ra dinning muhim funksiyalardan biri bu boshqaruv-nazorat funksiyadir.

Din ham jamoatchilik ongining boshqa shakli sifatida kishilar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Din mazkur funksiyani muayyan qadriyat va meyorlar tizimini yaratish asosida amalga oshiradi. Kishilar xulq-atvori boshqaruviga odat va an'analarni shakllantiruvchi diniy ibodatlar ham ta'sir ko'rsatadi. U ma'naviy va axloqiy qadriyat, marosim va udumlar tizimini o'z meyoriga moslashtirib boradi.

Ko'plab jamiyatlar bir nechta etnik guruhlarlardan, millatlardan tashkil topadi. Tabiiyki, ularning dinlari ham turlicha bo'ladi. Ana shunday jamiyatlarda eng ahamiyatli narsa shundan iboratki, insonlar bir-biriga nisbatan tolerantlik, diniy bag'rikenglikni namoyish etish, bir hududda yashab turgan boshqa xalqlarning urf-odatlarini, an'analarni hurmat qilishi ushbu jamiyat rivoji uchun asos bo'ladi. Aks holda shaxslar o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlarga kirisha olmaydilar. Bu holat esa jamiyatning bir



nuqtada qotib qolishga olib kelishi mumkin.

Dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri bu – xalqlar va dinlar o‘rtasidagi bag‘rikenglik, tolerantlik g‘oyasidir. Ushbu tushuncha atrofida yer kurrasining barcha xalqlari, elatlarining jipslashish zaruriyati tug‘ildi. Chunki, faqat bag‘rikenglikkina dunyoni halokatdan, bo‘lajak fojealardan asraydi. Shu boisdan, YUNESKO 1995 yili Parijda “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi” ni qabul qildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan esa 1996 yildan buyon har yilning 16 noyabr sanasi “Bag‘rikenglik kuni” deb e‘lon qilindi. Ushbu deklaratsiyada diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy jihatlariga alohida urg‘u berilgan. Xususan, unda shunday deyilgan: “Bag‘rikenglik bugungi kunda har doimgidan ham muhimroqdir. Biz iqtisodiy globallashuv jarayoni, aloqa vositalari tez rivojlanayotgan, integratsiya va o‘zaro aloqadorlik, katta miqyosdagi migratsiya va aholining ko‘chishi, urbanizatsiya va ijtimoiy tuzilmalar qayta shakllanayotgan asrda yashamoqdalar. Har bir mintqa serqirradir va shuning uchun murosasizlik va nizolarning ko‘payishi dunyoning barcha nuqtalariga tahdid qiladi. Bu tahdid global xarakterga ega bo‘lgan sababli, uni milliy chegaralar doirasida cheklanib qolishi mumkin emas”.

Dinlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Vijdon erkinligi masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab hodisa bo‘lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning barkamoliligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va bajaradigan vazifalari g‘oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o‘z ifodasini topgan. 1948 yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini yoki e‘tiqodini o‘zgartirish erkinligini, o‘z dini yoki e‘tiqodiga o‘zicha shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi. Xususan, ushbu normativ hujjatda: Har bir inson biror bir kamsitishlarsiz, irqi, tili, jinsi, dini, siyosiy qarashlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, moddiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat‘iy nazar mazkur Deklaratsiyada e‘lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo‘lishi kerak.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u ma‘lum ijtimoiy vaziyatda albatta namoyon bo‘ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, obyektiv va subyektiv omillarsiz tasavvur etish qiyin.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 35-moddasida **“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”**, deb yozib qo‘yilgan. Demak, dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik har kimning shaxsiy ishidir. O‘zbekiston hududi qadimdan turli dinlarga e’tiqod qiluvchi ko‘p millatli mamlakat sifatida ajralib turgan. Yurtimizda zardushtiylik, yahudiylik, xrisitianlik va islom diniga e’tiqod qiluvchi aholi emin erkin yashab kelgan. Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, yurtimiz hududida diniy sabab bois birorta nizolar bo‘lmaganligi xalqimizning diniy bag‘rikenglik borasida katta tajriba to‘plaganidan dalolat beradi. Tarixiy sharoit, jarayonlar bu zaminda tom ma’nodagi bag‘rikenglik tamoyillarining barqaror shakllanganligi, uning natijasida tinch, osuda hayot, ilmiy ma’rifiy yuksalish, taraqqiyot ta’minlanganligini ko‘rsatadi.

Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat’iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Konstitutsiyamizda **“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”**, degan tamoyilning mustahkamlab qo‘yilishi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Milliy qadriyatlar tolerantlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tolerantlik – o‘zligini anglagan millat vakillarining boshqa millat vakillari tomonidan kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ular bilan tinch, farovon hayot kechirishidir. Tolerantlik tuyg‘usi insonning xulq atvori, odob axloqi, siyosiy – ma’naviy pokligi, o‘z xalqi va milliy merosi boyligi hamda milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Bu xususiyatlar esa har bir insonda bag‘rikenglik, baynalmilallik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘zbekistonda tom ma’noda diniy bag‘rikenglikning yuksak an‘analariga amal qilayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, **“Bugun mana shunday xavfli – tahlikali, o‘ta notinch bir davrda jahon moliyaviy inqirozi hali-beri davom etayotgan bir paytda el-yurtimiz nimaiki natijalarni qo‘lga kiritmasin, bularning barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo‘lib borayotgan tinchlik va osudalik, millatlar, dinlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik, bir-birimizga hurmat va ehtirom hisobidan desak, o‘ylaymanki, hech qanday xato bo‘lmaydi”**.

Darhaqiqat, har bir inson, jamiyat va millatlar bashariyatning turli tuman urf odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag‘rikenglik munosabatida bo‘lishlari zarur. Zero, bu taraqqiyot garovidir.



Xulosa shuki, “O‘zbekiston-umumiy uyimiz“, “Vatan yagonadir“, “Bag‘rikenglik - o‘zbek xalqining buyuk fazilati“, “O‘zbekiston - bag‘rikeng diyor“, “Diniy e’tiqodlar - tinchlik xizmatida“ kabi iboralar bejizga aytilmaydi. Bu g‘oya xalqimizning, millati, dinidan qat’i nazar, shu yurtda yashayotgan har bir insonning hayotida mustahkam o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948 yil 10-dekabr.
3. YUNESKO. **Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.** – Parij, 1995.
4. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. **Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Saidov A.X. **Inson huquqlari va vijdon erkinligi.** – Toshkent, 2010.
7. Abduholiq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband ta’limotlariga oid manbalar.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. Dinshunoslik va ijtimoiy falsafaga oid ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent.